

## YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS VA AN'ANAVIY QADRIYATLARNING O'RNI

**Qambarov Abdujabbor Boxrolievich**

Namangan davlat pedagogika instituti, "Falsafiy va tarixiy fanlar" kafedrası  
dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20563371>**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'tmishdan qolgan qadimiy yodgorliklarga bo'lgan qiziqish xalqimiz tomonidan shunchaki bir xavas emas, balki ota makonga, ona-vatanga bo'lgan mehr bilan o'lchanadi va izohlanadi. Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirishimiz, tarixiy obidalar jamiyat ma'naviy hayotini yanada boyitib, Vatanga, xalqqa, ajdodlarga nisbatan hurmat va ehtirom hissini uyg'otishi haqida ma'lumot beriladi.*

***Kalit so'zlar:** qadimiy obida, madaniy qadriyat, tarixiy tafakkur, millat, milliy madaniyat*

## РОЛЬ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ И ТРАДИЦИОННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

***Аннотация:** В этой статье интерес к древним памятникам прошлого измеряется и объясняется нашим народом не просто страстью, а любовью к отцовскому пространству, к Родине-матери. Будет дана информация о нашем национальном самосознании, изучении древней и богатой истории нашей Родины, усилении научно-исследовательской работы в этой области, о том, как исторические памятники обогащают духовную жизнь общества, вызывают чувство уважения и уважения к Родине, народу, предкам.*

***Ключевые слова:** древний памятник, культурная ценность, историческое мышление, нация, национальная культура*

## THE ROLE OF CULTURAL HERITAGE AND TRADITIONAL VALUES IN THE DEVELOPMENT OF HISTORICAL THINKING OF YOUNG PEOPLE OF NEW UZBEKISTAN

***Annotation:** In this article, the interest in ancient monuments left over from the past is measured and explained by our people not just a Khawas, but by the love of the father for space, mother-motherland. It is informed about the realization of our national identity, the study of the ancient and rich history of our Motherland, the strengthening of scientific research in this regard, the fact that historical monuments further enrich the spiritual life of society and arouse a sense of respect and respect for the motherland, people, ancestors.*

***Keywords:** ancient monument, cultural value, historical thought, Nation, national culture*

O'tmishdan qolgan qadimiy yodgorliklarga bo'lgan qiziqish xalqimiz tomonidan shunchaki bir xavas emas, balki ota makonga, ona-vatanga bo'lgan mehr bilan o'lchanadi va izohlanadi. Tarixiy obidalar jamiyat ma'naviy hayotini yanada boyitib, Vatanga, xalqqa, ajdodlarga nisbatan hurmat va ehtirom hissini uyg'otadi. Jumladan, O'zbekiston ilk mustaqil bo'lgan yillarida, birinchi masala sifatida, milliy tarixni tiklash bilan birga mavjud madaniy qadriyatlarimizni yuksaltirish, tarixiy-madaniy obidalarimizni tiklash, asrab-avaylash borasida samarali ishlar amalga oshirila boshlandi. Taraqqiyotning bugungi bosqichida esa mamlakatimizda mavjud sakkiz mingdan ortiq tarixiy-madaniy yodgorliklarni nafaqat saqlab qolish, balki ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan, har bir viloyatda nomi yo'qolib ketish arafasidagi madaniy ob'ektlarni saqlab qolish borasida qator loyihalarning amalga oshirilishi buning isbotidir.

Hozirgi globallashuv jarayonlari dunyo milliy tafakkurida qator ijtimoiy-madaniy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Hozirga qadar amal qilib kelgan an'analar transformatsiyaga uchrab, mavjud axloq qoidalari, tumush tarzi, axloq-odob normalarini o'zgartirmoqda. Bu esa kelajak avlodning qadriyatlar asosida yashashiga yangicha yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. "Avlodlararo vorisiylik

asosini shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni tashkil etadi. Uning ikki vektorini farqlash zarur: a) vertikal – avval o'tgan avlodlar keyingi avlodlar sari; b) gorizontal – turli ijtimoiy, iqtisodiy, etnosiyosiy va ma'naviy-madaniy tizimlardagi zamondosh avlodlar” [1-B14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018 yil Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida “Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar olimlari faoliyatini har tamonlama qo'llab-quvvatlash lozim”[2.-B.272] ligini alohida ta'kidlab ko'rsatgan edi. Albatta, har bir xalq va millatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotini uning tarixi, an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kun jamiyatimizda amalga oshirilayotgan jarayonlar “Ma'naviy-madaniy hayot ta'lim-tarbiya, madaniy meros, tarixiy tajriba, diniy, axloqiy, ma'rifiy qarashlar, turmush tarzi, rang-barang munosabatlar, ilm-fan, xalq bayramlari, sayllar, tomoshalar va udumlar, san'at, adabiyot kabi sohalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Bu ko'hna yurtda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali hanuz o'zining ko'rki-tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obidaning umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ajdodlarimiz tafakkuri bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, siyosat, axloq, falsafa, me'morchilik, adabiyot, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar ana shunday ma'naviy-moddiy boyliklarmizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq kamdan-kam topiladi. Shu bois, yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish va ularda Vataniga tarixiy-ma'naviy va madaniy nuqtai

nazardan mansubligini his qilgan holda jamiyatda dahldorlik hissini rivojlantirish mumkin.

Hozirning ijtimoiy-madaniy muammolariga o'tmishdagi tajriba, ishlab chiqarish shakllari, turmush tarzi, axloq-odob normalarinigina emas, balki davr imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda yondashmoq lozim. Boisi, shu davrgacha amal qilib kelgan tartib va an'analar globallashuv jarayonlari ta'sirida o'z ahamiyatini yangicha ko'rinishga olib kelmoqda. Mentalitetning g'oyaviy asosi bo'lgan axloqiy qadriyatlar qayta ko'rib chiqilmoqda, qayta baholanmoqda va u asosda o'zga ahloq shakllanmoqda. Bu tendentsiya hozirda dunyoning istalgan hududida ko'zga tashlanmoqda.

Bugungi g'oyaviy-mafkuraviy xurujlar avj olayotgan bir paytda tarixiy tafakkur insonda ushbu xurujlarga qarshi immunitet hosil qiladi hamda turli tarixiy da'volarning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy sabablarini tahlil qilish funksiyasini shakllantiradi. Qolaversa, yoshlarda tarixiy tafakkurni rivojlantiruvchi uslublardan foydalangan holda, ularda Vatan tuyg'usi, muayyan millatga, xalqqa mansublik iftixori, tarixiy vatanparvarlik, o'z millati bilan identiklikni his etish salohiyati, milliy g'urur, milliy or-nomusni shakllantirish, rivojlantirish vazifasini ham bajaradi.

“Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan har qanday hodisa o'tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchun emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo'lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi”. [3.-B.227] Yurtimizda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi buyuk ajdodlarimizning, xususan, hanafiy mazhabi ulamolarining merosini hamda moturidiylik aqidaviy ta'limotini o'rganish va targ'ib qilish markazlari faoliyatiga ham bejiz asos solinmadi.

Sir emaski, xalqimizning milliy madaniy merosi o'zining qadimiyligi, boyligi bilan alohida ajralib turadi. Markaziy Osiyo tarixida aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan allomalar ko'p bo'lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahovuddin

Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahridin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning nomi, jahon tsivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissasi hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum. Ana shunday buyuk ajdodlar va ular qoldirgan merosni o'rganish orqali yoshlar ma'naviy qiyofasini shakllantirish mumkin. Shu ma'noda, bugun tarixiy-ma'naviy merosimiz to'g'risida yoshlarimizda bilim va tasavvurlarni hosil qilar ekanmiz, ularning qalbida tariximiz va undan o'tib kelayotgan madaniy merosimizga qanchalik haqqoniy, oqilona yondashsak, har birimizda unga nisbatan va shu merosni yaratgan insonlarga, shu meros bunyod bo'lgan yurtga nisbatan faxr va g'urur tuyg'usi jo'sh uradi.

Ko'p millatli O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, yurtimizda istiqomat qiluvchi millatlar o'rtasidagi tinch-totuvlikni qadrlab, juda ham nozik bo'lgan milliy his-tuyg'ular, milliy, madaniy, ma'naviy ehtiyojlarga har tamonlama nozik did, o'tkir farosat bilan yondashmoqda. Buning sababi, milliy madaniyatlarning o'zaro ta'siri va o'ziga xosligi, ularning bir-birini boyitishi va shu qatori birikishidir. O'zbekiston ko'p millatli davlat hisoblanib, har bir millatning milliy xususiyatlariga to'g'ri yondashilsa, bu davlatning ma'naviy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Millat ichidagi shaxslar turli xil moddiy turmush tarzi va turmush sharoitiga, turli ruhiy kechinmalarga ega bo'ladilar va ular jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga o'z manfaatlarini ifodalagan tarzda yondashadilar. Shuning uchun ham S. Mamashokirov ana shu nozik masalaga e'tibor berish zarurligini ta'kidlab "...hozirdanoq, bir millat o'z ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatning yoki boshqa xalqlar vakillarining huddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ro'yobga chiqarmasligi lozim"[4.-B.19]deydi. Shuningdek, ko'pgina millat vakillari biror millatning urf-odatlarini, an'analarni shu darajada o'zlashtirib oladilarki, bu urf-odatlar, an'analar ularning turmush tarziga aylanadi, ular shu

millat ravnaqi uchun haqiqiy jonkuyarga aylanadilar. Ular boshqa millat vakillari bo'lsalar ham, shu millatning qahramonlariga aylanadilar. Abduqahhor Ibrohimov ana shu masalaga e'tibor beradi: "Arman qizi Tamaraxonim o'zbek ashula va lapar san'atini butun dunyoga mashhur etdi. Boshqird qizi Galiya Izmaylova o'zbek balerinasida nom qozondi. Ozarbayjon farzandi Maqsud Shayxzoda, tatar o'g'loni Asqad Muxtor o'zbek adabiyotini o'zbekona xalqchil asarlar bilan boyitdilar. Buxoro yahudiylari – Sulaymon Yudakov o'zbek klassik operasi bo'lmish "Maysarani ishi"ni yaratdi, Manas Leviev "O'rik gullaganda" kabi o'nlab qo'shiqlari bilan xalqimizni maftun ayladi. Maryam Yoqubova "O'tkan kunlar" filmida haqiqiy O'zbekoyim bo'ldi" [5.-B.252]. Shundan bilishimiz mumkinki, yuqorida nomlari tilga olingan yozuvchi, san'atkorlar xalqimiz orasidagi mashhur va qadrlil insonlar qatoridan o'rin egalladilar. Ko'pchilik xatto ularning millatini bilishmaydi va ularni haqiqiy o'zbek deb qabul qilishadi.

*Yoshlar tarixiy tafakkurini rivojlantirishning muhim usullaridan biri badiiy-tarixiy adabiyotlar bo'lib, adabiyot kishining ongu tafakkurini o'stirish, kengaytirish, rivojlantirish, dunyoqarashini boyitishda samarali natija beradi. Alisher Azizxo'jaev qalamiga mansub "Chin o'zbeklar ishi" asari orqali kitobxon O'zbekistonning 1970-2002 yillar orlig'idagi tarixiy hodisalar mohiyatini anglab etadi. XX asrning 30-yillari ohiri va 40-yillari ohiri 50-yillar boshlarida mamlakatimiz boshiga kelgan qatag'onlik siyosatining dahshatlarini yoki Sobiq Ittifoq davrida kommunistik hukmron mafkuraning qurboni bo'lgan Botir firqa obrazi qaxramonining ongu tafakkuridagi kechinmalarni tushunishda, xalq afsonalari va tarixiy voqealarga asoslangan qahramonlik dostoni bo'lmish Homerning "Iliada"sida muhabbat va nafrat, sadoqat va intiqom, taqdir, vijdon kabi insoniy tuyg'ularni mazmunini tushunib etadi. Shu bilan birga, tarixiy manbalar bilan ishlash o'quvchida tarixiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantiribgina qolmay balki, unda o'zini butun bir katta millatning davomchisi ekanligini his etish uyg'usini shakllantiradi. Masalan, Ishoqxon To'ra Ibratning "Tarixi Farg'ona", Abu Bakr Narshaxiyning "Tarixi Buxoro", Mixail Ivaninning "Ikki buyuk sarkarda:*

Chingizxon va Amir Temur” kabi asarlar yoshlarda o’sha davr ijtimoiy hayot, siyosiy muhit va boshqa jarayonlar tasavvurli dunyoqarashni shakllantiradi.

Jamiyat a’zolari tomonidan kitob o’qish, odamlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish orqali shaxsning ma’naviy ongi mustahkamlanadi. To’g’ri, har doim ham kitob tarixiy bilimlar manbai bo’lib xizmat qilolmasligi mumkin. Shunga ko’ra, e’tibor qilinadigan narsani to’g’ri tanlash va tarixiy voqea-hodisalarni to’g’ri talqin qilish zarur.

Yoshlarda milliy vatanparvarlik e’tiqodi shaklanishiga ta’sir etadigan milliy qadriyatlar jumlasiga milliy, diniy bayramlar, marosimlar, oilaparvarlik, ota-onaga, qo’ni-qo’shniga, mahalla-ko’yga, oqsoqollarga hurmat, mehr-muruvvatlilik, rahm-shafqatlilik, poklik, insonparvarlik, halollik, iymonlilik, yurtimizning go’zal tabiatidan ilhom ola bilish va uni saqlash istagiga ega bo’lish kabi qadriyatlar kiradi. Vatanparvar insonlarni tarbiyalashda xalqimizning tarixiy merosi katta ahamiyatga egadir. “Tarixning vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirishdagi bag’oyat buyuk hamda qudratli qurollardan biri ekanligini o’zingiz ham nihoyatda yaxshi bilasiz”. [6.-B.133]

Yoshlarni turli xil ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun ularning qalbi va ongiga sog’lom hayot tarzini singdirish, milliy va umummilliy qadriyatlar hamda hurmat-ehtirom tuyg’usini bolalik paytidan boshlab shakllantirish, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizga ilmiy asosda to’g’ri yondashib, insonparvarlik, vatanparvarlik, taraqqiypavarlik mezonlariga ko’ra, milliylik, tarixiylik tamoyillari asosida jamiyatimiz oldidagi burch, vazifalarini davr va zamonaviy taraqqiyot talablariga mos ravishda amalga oshirishni kuchaytirish zarur.

#### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. С.М.Каланова. Авлодлар алмашинуви янги социомаданий қадриятлар шаклланишининг омили сифатида. Дисс авторефератию Тошкент. 2018. –Б.14.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси./ “Халқ сўзи”,2018 йил.29 декабрь,№271-272.

3. Фалсафа. Олий ўқув юртлари учун қўлланма. Тўлдирилган 2-нашр.  
Тошкент: Ўқитувчи, 2005. –Б.227.
4. Мамашокиров С. Инсон, маънавият, зиддият// Мулоқот.№1.2001.-  
Б.19.
5. Иброхимов А. Бизким ўзбеклар...-Тошкент: 1999.-Б.252
6. Исоқов Б. Тарих – тарбия таянчи. Наманган: Vodiy Media, 2019. –  
Б.133.